

O'ZBEK INTELEKTUAL ROMANLARIDA INSONNING MA'NAVIY SAFAR KONSEPSIYASI.

Azimov Humayunxon Mo'minovich

“Qashqadaryo viloyati teleradiokanali”

DM bosh muharriri

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek intellektual-falsafiy romanlarida insonning mavjudligi, hayot mazmuni va abadiyat bilan bog'liq ekzistensial muammolar talqini tahlil qilinadi. Xususan, Ulug'bek Hamdamning “Yo'l” romani misolida SAFAR va YO'L motivlarining badiiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi hamda asarning Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba” va “Aflotun”, Xurshid Do'stmuhammadning “Donishmand Sizif” romanlari bilan g'oyaviy-estetik mushtarakligi yoritiladi. Tadqiqotda qahramonning “Men qayerdan keldim, nega yashayapman va qayga ketayapman?” kabi falsafiy savollar orqali o'zligini anglashga intilishi tahlil etiladi. Shuningdek, romanlarda ramziylik, intertekstuallik, mozaik kompozitsiya, mifologik va tasavvufiy qarashlarning uyg'unlashuvi, qadim falsafiy tafakkur bilan zamonaviy inson ruhiyati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari yoritiladi. Maqolada intellektual-falsafiy roman janrining o'zbek adabiyotidagi badiiy-estetik xususiyatlari ham ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalitso'zlar: intellektual-falsafiy roman, YO'L motivi, SAFAR motivi, ekzistensializm, ramziylik, intertekstuallik, tasavvuf, falsafiy tafakkur, badiiy talqin, inson botini, ma'naviy kamolot, mifologizm, mozaik kompozitsiya, modern roman, o'zlikni anglash, abadiyat, ruhiy izlanish.

Abstract: This article analyzes the interpretation of existential problems related to human existence, the meaning of life, and eternity in Uzbek intellectual-



philosophical novels. In particular, the artistic and philosophical essence of the JOURNEY and ROAD motifs is revealed in the example of Ulugbek Hamdam's novel "Yol", and the ideological and aesthetic commonality of the work with Isajon Sultan's "Boqiy darbadar", Amon Mukhtor's "Tepalikdagi xaroba" and "Aflatun", and Khurshid Dostmuhammad's "Donishmand Sisyphus" is highlighted. The study analyzes the hero's desire to understand his identity through philosophical questions such as "Where did I come from, why do I live and where am I going?". The novels also highlight the issues of symbolism, intertextuality, mosaic composition, the combination of mythological and mystical views, and the connection between ancient philosophical thought and the modern human psyche. The article also reveals the artistic and aesthetic features of the intellectual-philosophical novel genre in Uzbek literature on a scientific basis.

Keywords: intellectual-philosophical novel, ROAD motif, JOURNEY motif, existentialism, symbolism, intertextuality, mysticism, philosophical thought, artistic interpretation, human soul, spiritual perfection, mythologism, mosaic composition, modern novel, self-awareness, eternity, spiritual search.

Аннотация: В данной статье анализируется интерпретация экзистенциальных проблем, связанных с человеческим существованием, смыслом жизни и вечностью, в узбекских интеллектуально-философских романах. В частности, на примере романа Улугбека Хамдама «Йол» раскрывается художественно-философская сущность мотивов «ПУТЕШЕСТВИЕ» и «ДОРОГА», а также подчеркивается идеологическая и эстетическая общность произведения с романами Исаджона Султана «Бокий дарбадар», Амона Мухтора «Тепаликдаги хароба» и «Афлатун», а также с романом Хуршида Достмухаммада «Донишманд Сизиф». В исследовании анализируется стремление героя понять свою идентичность через философские вопросы, такие как «Откуда я пришел, зачем я живу и куда иду?». В романах также освещаются вопросы символизма,



интертекстуальности, мозаичной композиции, сочетания мифологических и мистических взглядов, а также связи между античной философской мыслью и современной человеческой психикой. В статье также на научной основе раскрываются художественно-эстетические особенности жанра интеллектуально-философского романа в узбекской литературе.

Ключевые слова: интеллектуально-философский роман, мотив ДОРОГИ, мотив ПУТЕШЕСТВИЯ, экзистенциализм, символизм, интертекстуальность, мистицизм, философская мысль, художественная интерпретация, человеческая душа, духовное совершенство, мифологизм, мозаичная композиция, современный роман, самосознание, вечность, духовный поиск.

O'zbek adabiyotida yaratilgan, yangi tasvir tamoyillarini o'zida mujassam etgan romanlardan biri Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" asaridir. Bunda yozuvchi qadim yunon mifologiyasiga murojaat qiladi. Syujet Sizifning jazo toshini yuqoriga dumalatasihi va oxirida uni yengishidan iborat birgina voqea asosiga quriladi. Ammo ma'rifiy-falsafiy romanga xos ravishda asarda syujet, xarakterlar yetakchi emas, balki qadim mifning yangicha talqin etilishidadir. Romanda voqelikning badiiy tasviri tamoyili zaiflashib, turli falsafiy o'y-mulohazalar to'g'ridan-to'g'ri bayon tarzida beriladi. Professor I.Yoqubov adibning qaysi falsafiy manbalarga e'tibor qaratgani va ilhomlanganini ham ko'rsatadi. Uningcha, azaldan falsafiy tafakkurga moyil adib Xurshid Do'stmuhammad "Teogeniya" (Gesiod), "Metamarfozalar", "Qahramon ayollar" (Ovidiy), "Iliada" (Gomer) kabi antik adabiyot namunalari chuqur o'rganib chiqqan. "Biroq bu asarlarning turlicha jahoniy talqinlari Sharq-islom adabiy-estetik tafakkuri ta'sirida kamol topgan o'zbek adibini qanoatlantirmadi. Shuning uchun ham, ma'bud Zevs va Sizif munosabatlari bilan bog'liq an'anaviy mavzuni milliy folklor, mumtoz adabiyot an'analari, Sharqona e'tiqodiy asoslar negizida, jahon adabiyoti badiiy ifoda usullaridan keng foydalangan holda, mutlaqo yangicha



poetik tahlil va tadqiq qilishga qo'1 urib, "Donishmand Sizif" nomli roman yaratdi"¹.

Badiiy nasrga ma'rifiylikni olib kirgan adiblardan biri Ulug'bek Hamdamdir. Ilk bora u bu usulni "Yolg'izlik" qissasida tajribadan o'tkazgan edi. "Yo'l" romani U.Hamdamning boshqa romanlariga o'xshamaydi. Muallifning o'zi unga "falsafiy roman" degan eskartma beradi va Jaloliddin Rumiyning "Men bir ojiz tomchiman, ammo yuragimda ummon sog'inchi yashaydi" degan so'zlarini epigraf qilib oladi. Bu tasavvufiy mazmunga ega ibora o'zligini izlayotgan, Buyuk Yaratuvchiga intilayotgan qahramonning mohiyatiga ishora qiladi. Roman qahramonning bir necha tushlari tavsifidan boshlanadi. Bu esa bevosita psixoanalizdagi tushlar konsepsiyasiga muvofiq keladi. Roman kuchli mifopoetika. Mozaikaviylik, ramziylik, ma'naviy ko'pqatlamlilik asosiga qurilgan. Masalan, "Kovush" degan bo'limda "ummondan ajralib chiqqan izdihom degan jumla darhol Muso (a.s.) bilan bog'liq rivoyatni esga soladi. Roman boshdan-oxir voqeadan ko'ra voqelikni idrok etish translyatsiyasi asosiga shakllantirilgan. Qahramon "Men o'z mohiyatimni harakatda ko'rar edim. Faqat harakatgina mening menligimni namoyon etar edi. Qolgan vaqt esa men mavjud edim-u, ammo bilinmas va ko'rinmas holatda sobit turardim"² der ekan, antik dunyo faylasufi Geraklitning "barcha narsa oqimda va hech narsa bir joyda turmaydi" ("Πάντα ῥεῖ καὶ οὐδὲν μένει, lat. Omnia fluunt, omnia mutantur") degan iborasini boshqacha shaklda takrorlaydi go'yo. Harakat – deyarli barcha falsafalarda materiyaning yashash shakli o'laroq tavsiflanadi. Qahramon tinimsiz falsafiy fikrlarga beriladi: "Maqsadimga yetmog'im uchun menga harakat kerak, harakatlanish uchun esa vosita – kovush zarur edi. Nima uchunligini bilmayman. Balki bilarman ham. Bilimim qaydadir botinimda ko'milib yotgan chiqar. (Xuddi shu tobdagi o'zimdek. Axir, men ham ayni chog'da yo'qman, to'g'rirog'i, yo'qdekman, aslida-chi, borman!) Faqat uni topib kelib sizning oldingizga qo'ygani fursatim yo'q.

¹ Ёкубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Б. 123.

² Ҳамдам У. Йўл // <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdam/ulugbek-hamdam-yul-falsafiy-roman/>

Nazarimda kovush bu – shakl edi, ko‘rinish va bilinish shakli. Bas! Qolganini sizga bayon etolmayman”³.

Roman qahramoni o‘z botinida shunday savolga duch keladi: “Men qayerdan keldimu nega keldim va qayga borayapman?..” Bu savol o‘zbek intellektual-falsafiy romanlaridagi ko‘pgina qahramonlarni qiynayotgan savoldir. “Boqiy darbadar”da ham qahramonlar shu savolni o‘rtaga qo‘yadilar, shu savolga javob topish uchun yo‘l bosadilar. Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba” hamda “Aflotun” intellektual-falsafiy romanlarida ham YO‘L motivi markazda turadi, qahramonlar bevosita emas, bilvosita shu savolga javob izlaydilar. Romanning “Yaxshilik va yomonlik”, “Tomchidan sadolar” bobi esa qadim faylasuflarning o‘zaro suhbatlarini yodga keltiradi. Romanda “ijodkor bo‘z yigitning er yetish, ma’naviy kamol topish yo‘li merosiy xazinani qayta idrok etish, odam bolasining ibtidodan intihogacha bo‘lgan necha ming yilliklarga cho‘zilgan maqsadliyu bemaqsad uzun hayot yo‘lini taftish qilish, diniy-ilohiy manbalarni mushohada etish, nihoyat Rumi hamda Navoiyga yukunish orqali kechadi”⁴. Qahramon izdihomdagi odamlarning turli savollarini qayd etar ekan, bu izdihom – insonning botini, undagi qarama qarshiliklar singari idrok etiladi: “Izdihomning rang-boshiga nazar solaman, turfa-turfa qiliq-qiyofa, turli-tuman xatti-harakat. Ayni chog‘da, umumiylik ham mavjud. Hamma bir tomonga odimlayapti, hatto o‘rtalarida bahs-munozara qizib tursa ham belgilangan yoqqa harakatlanishdan chalg‘ish yo‘q. Qanday bahs deysizmi? Aytay: taraflarning biri “Biz qayerga ketyapmiz o‘zi? Nega ketyapmiz?” desa, boshqasi “Qayerga ketayotganimizu nega ketayotganimizdan ham ko‘ra qayerdan kelayapmizu, nega kelayapmiz?” degan savol muhimroq, deydi. Chunki shu savolga javob topsak, qayerga borayotganimiz ham, nega borayotganimiz ham ayon bo‘larmish. Shunda yana bir toifa odamlar “Bularning hammasi be‘mani gap-so‘zlar! Bunday tortishuvlardan naf yo‘q, yaxshisi, qanday ketayapmiz?” degan savolga javob topaylik”, deya chiranadi.

³ Юкоридаги манба

⁴ Ёкубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. –Б. 47.



Shunday qilinganda yo'ldagi holimiz yaxshilanib, borayotgan manzilimizga ko'tarinki ruhda kirib borar ekanmiz. Ularcha, "qayerdan va qayerga emas, hatto nima uchun, nima maqsadda ham emas, balki qanday, qay sharoitda borish muhim" ekan. "Chunki – deydi bu toifa insonlar, – kelish ham, ketish ham insonning qo'lida emas, yo'lni qanday bosishgina uning o'z ixtiyorida. Shunday bo'lgach, biz ixtiyorimizdagi narsalar haqida qayg'urishimiz kerak"⁵. Inson botinining turli obrazlarda namoyon bo'lishini biz ibn Sino hikoyatlarida ko'rgan edik. Asarda bevosita Umar Xayyom obrazi ham beriladi. U ham qahramonimiz bilan birga katta izdihom ichida boradi, o'z ruboiylaridan aytadi. Qahramon, shuningdek, Zardusht, Budda kabi turli falsafiy oqimlarning asoschilariga ham duch keladi. Romanda yo'l – insonning tiriklik dunyosida to o'linga qadar bosib o'tadigan yo'li kabi idrok etiladi. Shu yo'l uning abadiyatdagi o'rnini belgilaydi. Kuchli ramziylik, ko'p ma'nolilik, intertekstuallik, mozaikaviylik, syujet va xarakterlarning ikkinchi planda qolishi, vaqtning mavhumligi, falsafiy mulohazalarning bayot shaklida berilishi kabilar "Yo'l"ni intellektual-falsafiy roman deyishga asos beradi. Shu tariqa boshqa romanlarida intellektual-falsafiy roman elementlaridan foydalangan. Ulug'bek Hamdam "Yo'l" asarini tamomila shu yo'sinda bitdi. Roman mazmun-mohiyati bilan Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif", Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", Omon Muxtorning "Tepalikdagi xaroba" va "Aflotun" romanlariga nihoyatda yaqin turadi. Donishmand Sizif qismat toshini parcha-parcha qilgani singari "Yo'l" qahramoni finalda o'zi butun asar mobaynida izlagan kovushni topadi. Bu romanlarning barchasida xuddi sharqona asotirlardagi kabi yo'lga tushgan qahramon, yo'l izlash, turli odamlar va sarguzashtlarga duch kelish bilan xarakterlanadigan SAFAR motivi yetakchilik qiladi. Turli falsafiy nuqtayi nazarlar, tasavvufiy yondashuv manaman deb ko'zga tashlanadi. Ularning barida inson umrining mazmun-mohiyati bilan bog'liq ekzistensial g'oya markazda turadi.

⁵ Хамдам У. Йўл // <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdam/ulugbek-hamdam-yul-falsafiy-roman/>



ADABIYOTLAR:

1. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – 352 b.
2. Dўstmuhammad X. Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – 316 б.
3. Dўстмуhammad X. Изхор. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 640 б.
4. Ҳамдамов У. Рухни уйғотгувчи сўз (Илмий ва публицистик мақолалар, тақризлар, суҳбатлар). – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – 404 б.
5. Қўшжонов М. Ҳаёт ва нафосат. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 156 б.

